

**CHUST MADANIYATINING FARG'ONA VODIYSI TARIXINI
O'RGANISHDAGI TARIXIY AHAMIYATI**

Maxsutaliyev Jahongir

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida o'zining oy va qadimiylar tarixi bilan ajralib turuvchi Farg'ona vodiysining Chust tumanida joylashgan ko'plab arxeologik yodgorliklari o'z ichigaq olgan – Chust madaniyati, uning o'rjanilishi, undagi qimmatli va qiymatli ma'lumotlarning o'lka tarixida tutgan o'rni to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: Chust madaniyati, tadqiqot, mudofaa inshootlari, Yuriy Aleksandrovich Zadneprovskiy, Varzik, tegirmom toshlari.

Chust Respublika shaharlari ichida qadimiyligi, uzoq o'tmishga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ko'plab arxeologik qazishmalar natijalarida keyingi yillarda "Chust madaniyati" degan yangi tarixiy iboralarni paydo bo'lishi fikrimiz dalilidir. Chust aholisi arxeologik qazilmalarning guvohlik berishicha, azaldan sug'orma dehqonchilik bilan, xususan, paxtachilik, chorvachilik bilan shug'ullanib kelganligini yangi arxeologik tadqiqotlarda o'z isbotini topayotganligini ifodalab o'tish lozim.

O'zbekiston hududida, xususan Farg'ona vodiysida juda ko'plab tarixiy va arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Vodiyni tumanlarga bo'lib o'rjanishni lozim topsak, ularning ichida bir tuman o'zining boy va qadimiylar tarixi bilan boshqa joylardan keskin ajralib turadi. Bu Chust tumanidir. Chust tumanida joylashgan arxeologik yodgorliklar ham xilma-xil va o'ziga xos tarixga ega. Bu hududda 80 dan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud bo'lib, ularni bir nom ostida birlashtiramiz, ya'ni "Chust madaniyati".

Chust madaniyati - Farg'ona vodiysidagi ko'hna dehqonchilik madaniyati (mil. av. 2ming yillik oxirgi choragi — 1ming yillik boshlari). Dehqonlar suv bo'yidagi unumdar yerkarni o'zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida joylashganlar. Chust madaniyati yodgorliklari, asosan, Farg'ona

vodiysining shimoliy-sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni hozirgi 80 dan ortiq. Bu madaniyatga taaluqli yodgorlik 1950-yil toshkentlik arxeologlar M. E. Vorones va V. I. Sprishevskiyalar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Madaniyat nomi shundan (mahalliy aholi Buvonamozor deb ataydi). 1953—61 ylarda V. I. Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Chust madaniyatini keyingi o‘rganilishida Sankt-Peterburglik olim Yu. A. Zadneprovskiyning xizmatlari katta bo‘lgan[1]. Chust madaniyatining ayrim yodgorliklarida (Dalvarzin, Chuyet) mudofaa inshootlari o‘rganilgan. Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi Dalvarzin vodiysidagi ilk shahar va o‘ziga xos markaz bo‘lgani (miloddan avvalgi XII—VII asrlar) arxeologik jihatdan isbot etilgan. Mazkur hudud misolida butun bir boshli Farg’ona vodiysining qanchalik uzoq tarix yo’lini bosib o’tganini arxeologik yodgorliklar misolida ko’rib chiqamiz.

Shu bilan birgalikda bu ulkan madaniy me’rosning o’rganilish tarixi bilan tanishamiz. 1999-yil 23-avgustda 76 yoshida taniqli mahalliy arxeolog, sharq qadimiyatlari tadqiqotchisi, tarix fanlari doktori, yetakchi tadqiqotchi-maslahatchi Yuriy Aleksandrovich Zadneprovskiy og’ir xastalikdan so’ng vafot etdi. U ekspeditsion faoliyati va ilmiy ishlari bilan O’rta Osiyo arxeologiyasini yaratgan tadqiqotchilar qatoriga kirgan. Mustaqil fan sifatida u Yaqin Sharq arxeologiyasidan kechroq shakllangan bo‘lib, u yerda arxeologlar tomonidan ko’plab qadimiy madaniyat yodgorliklari topilgan[2]. Masalan, Eron va Hindistondan Buyuk Xitoy devorigacha bo‘lgan ko’plab Osiyo mamlakatlarini ko’zdan kechirgan A. Shtayn shunday harakat qildi. A. Shtaynning ekspeditsiyalari eng qimmatli materiallarni taqdim etdi, garchi u haqiqiy arxeologik qazishmalarni o’tkazmagan bo’lsa-da, metodologiyasi embrion holatda edi. Rossiya davlati arxeologlari tomonidan qadimiy yodgorliklari topilgan O’rta Osiyoda dastlab g’ayratli kashshoflar ham o’z tadqiqotlari bilan keng maydonlarni qamrab olgan. Ammo, havaskor sayohatchi A. Shteyndan farqli o’laroq, rus olimlari yuqori uslubiy darajada ishladilar. Bunday keng doiradagi tadqiqotchilar orasida S.P.

Tolstov va A. N. Bernshtam. Chust manzilgohini o‘rganish, Yu.A. Zadneprovskiy bilan birgalikda E.V. Drujinina ham ish olib borgan.

“Chust madaniyati”ning manzilgohlarini o‘rganish bugungi kunda ham davom etmoqda. Xususan, Varzik, Rova, Qoraqur’ur-konchilar qishloqlari hududlarida olib borilgan o‘rganishlar natijalari yuqorida qayd etilgan qoidalarimizni yanada oydinlashtiradi. Jumladan, Chust shahri va uning atrofida yashovchi aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotda qadimdan o‘ziga xos tartib-qoidalari bo’lgan. Nisbatan rivojlangan turar-joy maydoni topildi[3]. Bunday ma’lumotlarga S. R. Baratov, S. Baratovaning “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalining 1990 yil 1-sonida e’lon qilingan. Bu "Varzikda topilgan ajoyib brakteat" maqolasida keltirilgan. 1986-yilda Chust tumani, Varzik qishlog’i yaqinida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mukxonlarni o‘rganishda birinchi marta o’lchami 13 millimetrga teng bo’lgan. Kichik tanga shaklidagi mis yodgorligi topilgan. Chuqurning tubida maxsus maqbara toshi joylashgan.

Ko‘rinib turibdiki, O‘rta Osiyoning, xususan, O‘zbekiston hududidagi qadimi shaharlarning yoshi, jumladan, O‘zbekiston tarixiga “Chust madaniyati” nomi bilan kirgan Chust shahrining yoshi aniq xronologik sana bo'yicha ham aniqlanmagan. Biroq, bu yerdan topilgan mexnat qurollari (bolta, pichoq, xanjar) Chuet aholisining bronza davriga xos faoliyat bilan shug‘ullanganligini ko'rsatadi. Topilmalar qadimgi Chust aholisining hunarmandchilik bilan keng shug‘ullanganligini tasdiqlaydi va hunarmandchilikning rivojlanishi, o‘z navbatida, shaharning rivojiga olib kelganiga shubha yo‘q. Ayrim tadqiqotchilarining yuqoridagi fikrlarini umumlashtirib, Chust shahrining yoshini 3500 yil deb aytishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Chunki bundan 4000-3000 yil avval aytilgan barcha fikrlar taxminiy, umumlashtirilgan. Bu fikrni buyuk arxeolog V.Ya. Qazishmalar paytida topilgan bug‘doy, arpa, suli urug‘lari, tegirmon toshlari o‘sha davrda bu yerda odamlar yashaganligidan dalolat beradi.

Ana shunday qadimi tarixga ega bo”lgan Chust madaniyati, Farg’ona vodiysi, balki o’lkamiz tarixi uchun ham qimmatli ma’lumotlarni tuhfa etadi.

Uning o'rganilishi chog'ida qo'lga kiritilayotgan moddiy buyumlar esa ayni tarixning asl guvohi sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Матбабоев Б.Х. Новое исследование городища Чуст (Фергана). // СА. № 4 М. 1984, С. 241-2459. Мамбабоев Б.Х. Местные варианты ферганско-чустской культуры. Абстрактное не... искреннее. ист. наук. Ленинград, 1985. 18 с.
2. Спирцевский В.И. Чустский памятник эпохи бронзы (раскопки 1953 г.). // Советская этнография. № 3. М., 1954. С. 69-76.
3. Спирцевский В.И. Поселение бронзового века Чуст. (из раскопок 1954 г.) // КСИ-ИМЦ. Версия. 69. М., 1957. С. 40-49.
4. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и земель раннего железного века Средней Азии. Авторефера дисс... док. ист. наук. М. 1978, 52